



UZUMNING QORA KISHMISH NAVI TUPIDAGI BOSHLAR SONI VA ULARNING O`RTACHA OG`IRLIGIGA PS- AGROO`G`ITLAR ME`YORINING TA`SIRI.

M.A.Xayitov

q,x,f,n. dotsent,

maxayitov 1965@mail.ru

J.D.Qarshiyev

magistrant,

jurash423@gmail.com

Sh.M.Yoqubov

assistent

yoqubovshahboz98@gmail.com

B.A.Narzullayev

_magistrant,

narzullayevbaxtiyor096@gmail.com

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Unversiteti

Agrobiotexnologiyalar va oziq - ovqat xavfsizligi instituti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8434422>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 02-October 2023 yil

Ma`qullandi: 06- October 2023 yil

Nashr qilindi: 12- October 2023 yil

KEY WORDS

*Uzum, hosildorlik, sifat, o`g`it
me`yorlari, tupidagi boshlar soni,*

ABSTRACT

*Ushbu maqolada Samarqand viloyati Payariq tumani
tipik bo`z tuproqlari sharoitida uzumning qora
kishmish navlari hosildorligi sifatiga Ps-agro o`g`itini
N120K60 fonida maqbul me`yori berilgan.*

Dunyo miqyosida uzumning quritilgan kishmish navlari yalpi ishlab chiqarilishi bo`yicha barcha quritilgan mevalar orasida birinchi o`rinda turadi. Bugungi kunda dunyoda kishmish-mayiz ishlab chiqarish bo`yicha Turkiya (353,2 ming tonna) AQSH (332,8 ming tonna), Eron (122,6 ming tonna Gretsiya (72,9 ming tona) yetakchilik qilib kelmoqda. Ushbu mamlakatlarda uzum hosildorligini oshirish, uning yirik g`ujumli, bugungi kun bozor va eksport talablariga javob beradigan yangi navlarini ishlab chiqish bo`yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Dunyo bo`yicha kishmish mayiz ishlab chiqarishda yetakchilik qilayotgan mamlakatlarda uzumning urug`siz navlari hosildorligini oshirish imkonini beruvchi agrotexnika elementlarini, xususan tok tupini eng maqbul yuklamalarini navga ko`ra belgilash , sug`orish va o`g`itlashning tejamkor me`yorlarini belgilash kishmish mayiz ishlab chiqarish hajmini ananaviy texnologiyalarga nisbatan 1,2-1,5 barobarga oshirish imkonini bermoqda. Mamlakatimizda uzumning qora kishmish navlari keng tarqalgan ularning navga xos tup yuklamasi va o`g`itlash me`yorini qo`llash orqali kishmish mayiz ishlab chiqarish hajmini yanada oshirish va uni eksport bo`yicha jahonda egallab kelayotgan o`rnini yanada mustahkamlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Respublikamizda so`nggi yillarida uzumning yuqori hosildor kasallik va zararkunandalarga chidamli yangi nav va duragaylarini yaratish va yetishtirishning maqbul agrotexnologiyalarini ishlab chiqish

bo'yicha keng qamrovli tadbirlar amalga oshirmoqda.

2017- 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasining rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirish ayniqsa uzumlarni joylashtirish hisobiga ekin maydonlarini yanada optimallashtirish" masalalari muhim vazifa qilib belgilangan. Bu borada uzumning qora kishmish navlarining tok tupi yuklamasi va mineral o'g'itlar me'yorini aniqlash bo'yicha ilmiy- tadqiqot ishlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot uslubi. Samarqand viloyati Payariq tumani tipik bo'z tuproqlari sharoitida uzumning qora kishmish istiqboli navi hosildorligi va hosil sifatini oshirish uchun eng maqbul tok tupi yuklamasi va mineral o'g'itlash me'yorini aniqlashdan iborat.

Tajribalar X.Ch. Bo'riev, N.Sh. Enileev, va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan " Mevali va rezavor mevali o'simliklar bilan tajribalar o'tkazishda hisoblar va fenologik kuzatuvlar metodikasi" (Н.И.Рябоваб В.Л. Витковскийнинг Изучение сортов винограда Н.Н. Простосердовнинг Изучение винограда для определения его использования nomli uslubiy adabiyotlarida keltirilgan tavsiya va uslublar bo'yicha o'tkazilgan. Uzumning tarkibidagi qandlilik miqdori (ГОСТ 271198-87(СТСЭВ 5622-86). Виноград свежий ю Методы массовой концентрации сахаров) uslubiy asosida aniqlangan. Tadqiqot natijalarining statistik tahlili (Excel 2019 va sattistica 10 for Windows kompyuter dasturlarida, 0,95% ishonchlilik oralig'i bilan B. A. Dospexov ko'rsatilgan uslub bo'yicha hisoblangan.

Olingan natijalari va ularning muhokamasi. Tajribamiz natijalariga ko'ra turli fosforli o'git me'yorlarni o'rganganimizda, o'simlik rivojlanishi, o'sishi, hosildorlik, hosil sifatiga turlicha ta'sir ko'rsatdi. Bunda o'g'itsiz nazorat variantimizga solishitirganda qolgan variantlari hosildorligi ko'payishi kuzatildi. Tadqiqotimizda Fon sifatida azotli va kaliyli o'g'itlari olindi. Fon variantimizda N120K60 - Fon me'yorini qilib olindi. Shunga ko'ra qolgan variantlarimizda fosforli o'git me'yorli oshirib borildi. Bunda quyidagicha natijalari olindi.

Ps-agro o'g'itlar me'yorini oshishi bilan uzum qora kishmish navi hosildorligi quyidagicha bo'ldi. Bunda o'g'itsiz - nazorat variantimizda o'git berilmaganda, bir tupning o'rtacha hosili 16.4 kg, 180.4 s/ga hosildorlik olindi, N120K60 - Fon variantimizda bir tupning o'rtacha hosili 18,1kg, hosildorlik 199,1s/ga, N120K60 -

Ps - agro o'g'iti - 60 kg variantimizda bir tupning o'rtacha hosili 21,6 kg, hosildorlik 237,6 s/ga, N120K60 - Ps - agro o'g'iti -90 kg variantimizda bir tupning o'rtacha hosili 23,5 kg, hosildorlik 258,5 s/ga, N120K60 - Ps - agro o'g'iti -120 kg variantimizda bir tupning o'rtacha hosili 22,7 kg, hosildorlik 249,7 s/ga hosildorlik olindi. Mineral o'g'itlar hisobiga olingan qo'shimcha hosil quyidagicha mos ravishda 110.3; 131.7; 143.3; 138.4 foizni tashkil etdi. (1-jadval)

(1-jadval)

Ps- agro o`g`itlar me`yorini uzum qora kishmish navi hosildorligiga ta`siri.

№	Variant	Uzum donasi O`rtacha Massasi, g	Uzum boshi o`rtacha massasi, g	Hosildorlik			
				1-tupdagi kg	1 ga/t	Nazoratga nisbatan	
						S/ga	%
1	O`g`itsiz – nazorat	2.4	328.2	16,4	18,04	180,4	100
2	N ₁₂₀ K ₆₀ – Fon	2.6	330.7	18,1	19,91	199,1	110,3
3	N ₁₂₀ K ₆₀ –Ps- agroo`g`iti-60 kg	2.7	333.5	21,6	23,76	237,6	131,7
4	N ₁₂₀ K ₆₀ –Ps- agroo`g`iti-90 kg	2.8	336.7	23,5	25,85	258,5	143,3
5	N ₁₂₀ K ₆₀ –Ps- agroo`g`iti-120 kg	2.7	334.5	22,7	24,97	249,7	138,4

Uzumning qora kishmish navi tupdagi boshlar soni va ularning o`rtacha og`irligiga Ps- agro o`g`itlar me`yorining ta`siri o`rganilganda quyidagicha natijalari olindi. Bunda O`g`itsiz - nazorat variantimizda o`g`it berilmaganda, bir tupning o`rtacha tupdagi uzum boshlar - 31.3 dona, uzum boshlar og`irligi 328.2 gr olindi, N120K60 - Fon variantimizda, bir tupning o`rtacha tupdagi uzum boshlar - 38.2 dona, uzum boshlar og`irligi 330.7 gr olindi, N120K60 – Ps – agro o`g`iti – 60 kg variantimizda bir tupning o`rtacha tupdagi uzum boshlar - 43.2 dona, uzum boshlar og`irligi 333.5 gr olindi, N120K60 – Ps – agro o`g`iti –90 kg variantimizda bir tupning o`rtacha tupdagi uzum boshlar - 48,2 dona, uzum boshlar og`irligi 336.7 gr olindi, N120K60 – Ps – agro o`g`iti –120 kg variantimizda bir tupning o`rtacha tupdagi uzum boshlar - 46.0 dona, uzum boshlar og`irligi 334.5 gr olindi. Mineral o`g`itlar hisobiga olingan qo`shimcha hosil yuqoridagiga mos ravishda 101.8; 105.6; 107.7; 109.6 foizni tashkil etdi. (2-jadval)

(2-jadval)

Uzumning qora kishmish navi tupidagi boshlar soni va ularning o`rtacha og`irligiga Ps-agro o`gitlar me`yorining ta`siri.

T/P	Tajriba varianti	Tupdagi uzum boshlar, dona	Uzum boshlar og`irligi	
			gr	Nazoratga nisbatan,%
Qora kishmish				
1	O`g`itsiz - nazorat	31.3	398.2	100,0
2	N ₁₂₀ K ₆₀ - Fon	38.2	405.4	101.8
3	N ₁₂₀ K ₆₀ - Ps - agro o`g`iti - 60 kg	43.2	420.7	105.6
4	N ₁₂₀ K ₆₀ - Ps - agro o`g`iti - 90 kg	48,2	428.9	107.7
5	N ₁₂₀ K ₆₀ - Ps - agro o`g`iti - 120 kg	46.0	460.7	109.6

Tadqiqot natijalarimiz shuni ko`rsatadiki; Ps-agro o`gitlar me`yorini oshishi bilan uzum qora kishmish navi hosildorligi - N120K60 - Ps - agro o`g`iti - 120 kg variantimizda bir tupning o`rtacha hosili 22,7 kg, hosildorlik 249,7 s/ga hosildorlik olindi. Mineral o`gitlar hisobiga olingan qo`shimcha hosil foiz ulishi quyidagicha bo`ldi - N120K60 - Ps - agro o`g`iti - 120 kg variantimizda 138,4 foizni ko`rsatdi. Uzumning qora kishmish navi tupidagi boshlar soni va ularning o`rtacha og`irligiga Ps-agro o`gitlar me`yorining ta`siri natijalariga ko`ra eng yuqori ko`rsatkichini ko`rsatdi. N120K60 - Ps - agro o`g`iti - 90 kg variantimizda bir tupning o`rtacha tupdagi uzum boshlar - 48,2 dona, uzum boshlar og`irligi 336.7 gr olindi.

Barcha variantlarda iqtisodiy samaradorlik hisoblab chiqildi. Eng yaxshi variant - N120K60 - Ps - agro o`g`iti - 90 kg ekanligi aniqlandi. Qolgan variantlarida o`g`it me`yori oshishi bilan hosildorlik sezirali darajada ortmadi, lekin harajatlari ortdi, natijada iqtisodiy samaradorlikka erishilamadi.

XULOSA

Xo`raki qora kishmish navidan yuqori va sifatli hosil olish uchun oltingugurt saqllovchi Ps-agro o`g`itini N120K60 fonida gektariga 120 kg P205 me`yorida qo`llash tavsiya etiladi. Bu me`yor orqali qora kishmish uzum navini yetishtirishda iqtisodiy samaradorlikni taminlaydi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bo`riev.Ch., Enileev N.Sh., va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan << Mevali va rezavor mevali o`simliklar bilan tajribalar o`tkazishda hisoblar va fenologik kuzatuvlar metodikasi>>
2. Davenport, J. R., and C. Jones.2016. Comparison of foliar- and soil-applied phosphorus

fertilizer in wine grape. *Crops & Soils* 49 (4):30–2. doi:10.2134/cs2016-49-0407.

3. University (Natural Sciences.) March 2022. Vol. 49. No. 03.p-430-443.

4. Kandyliis, P. Grapes and their derivatives in functional foods. *Foods* 2021, 10, 672.

5. Peacock, W. L., and L. P. Christensen. 2005. Drip irrigation can effectively apply boron to San Joaquin Valley vineyards. *California Agriculture* 59 (3):188–91. <https://escholarship.org/uc/item/8fb93784>. doi: 10.3733/ca.

6. Ulaszewska, M., Garcia-Aloy, M., Vázquez-Manjarrez, N., Soria-Flórido, M. T., Llorach, R., Mattivi, F., & Manach, C. (2020). Food intake biomarkers for berries and grapes. *Genes & nutrition*, 15(1), 1-35.v059n03p188.

7. Удобрение виноградников: виды, сроки, дозы и нормы внесения / В. А. Монастырский, А. Н. Бабичев, А. А. Бабенко, А. П. Тищенко // Мелиорация и гидротехника. 2022. Т. 12, № 4. С. 265–285.

